

**AQLIY RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR  
PSIXOLOGIYASINING O'ZIGA XOSLIGI.**

*Djurayeva Sohiba Barat qizi*

*JDPU Maxsus pedagogika kafedra o'qituvchisi*

*Xusanova Lobar Shuxrat qizi*

[lobarx460@gmail.com](mailto:lobarx460@gmail.com)

*JDPU Surdopedagogika yo'nalishi 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologiyasi va ularning xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Aqliy rivojlanish nuqsonlari — bu bolalarning intellektual faoliyatini, o'rganish qobiliyatini va ijtimoiy moslashuvchanligiga ta'sir qiluvchi holatlar. Ushbu tadqiqotda nuqsonlarning turli shakllari, ularning belgilari, shuningdek, ta'lim va tarbiya jarayonidagi ahamiyati ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Nuqson, aql, rivojlanish, maxsus pedagogika, faoliyat, intellekt.

**Annotation:** This article aims to study the classification of children with intellectual disabilities and their characteristics. Mental retardation is a condition that affects children's intellectual functioning, learning ability, and social adaptability. This study examines different forms of disabilities, their symptoms, as well as their importance in the process of education and upbringing.

**Key words:** Defect, mind, development, special pedagogy, activity, intellect.

**Аннотация:** Целью данной статьи является изучение классификации детей с нарушениями умственного развития и их особенностей. Умственная отсталость – это состояние, которое влияет на интеллектуальное функционирование детей, способность к обучению и социальную адаптацию. В данном исследовании рассматриваются

различные формы инвалидности, их симптомы, а также их значение в процессе обучения и воспитания.

**Ключевые слова:** Дефект, ум, развитие, специальная педагогика, активность, интеллект.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan ishlarning muhim bir qismi sifatida alohida yordamga muhtoj bolalarni qo'llab quvvatlash va Ularni bilimni oshirish uchun qilinayotgan ishlar ham taxsinga sazovor. O'zbekistonda birinchi maxsus maktablar uchun oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash maqsadida 1967-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida alohida yo'nalish ochilgan. Hozirgi kunda yordamga muhtoj bolalar ta'lim tarbiyasi va rehabilitatsiyast jarayonlari butun dunyoda ilmiy nuqtai nazardan juda ko'p o'rganilayotgan masalalardan biriga aylangan. Bunday bolalarni korreksiyalash va erta tashhis qo'yish ularning ijtimoiylashuvi hamda kelajakda jamiyatda o'z o'mini topa olishi uchun muhim hisoblanadi. Bunday bolalar qatoriga aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ham kiritishimiz mumkin. Aqliy zaiflik - bu aqliy, hissiy sohaning rivojlanmaganligi, xotira va e'tibor darajasining ma'lum bir yosh toifasi uchun me'yoriy ko'rsatkichlardan kechikishi bilan namoyon bo'ladigan bola psixikasining normal shakllanishi tezligining buzilishi. Qoidaga ko'ra, aqliy zaiflik tashxisi 5-6 yoshda, asosan maktabning boshlang'ich sinflarida, faol ta'limning boshlanishi davrida qo'yiladi. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar pedagogikasi va psixologiyasi asosan XVII asming oxiri, XIX asming boshlaridan rivojlana boshlagan. Bu sohada 1858 yil rus pedagogi N.A.Dobrolyubov tomonidan ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lib, taniqli rus pedagogi G.Y.Troshin hamda yetuk psixolog L.S.Vigotskiylar ham shu soha rivojlanishiga katta hissa qo'shishgan. XX asrning 90-yillaridan boshlab aqliy zaiflarning xalqaro tasnifidan foydalana boshlandi, unga binoan bolalarni 4 guruhga: yengil, o'rtacha, og'ir va chuqur darajadagi aqliy zaiflik bolalar toifasiga ajratildi. Aqliy zaif o'quvchilar alohida

toifa bolalarni tashkil etadi. Ular boshqa turdagi maxsus maktab o'quvchilaridan farq qiladilar. Aqliy zaiflikning belgilari va klinik ko'rinishi. Aqliy zaiflikning namoyon bo'lishi barcha intellektual jarayonlarga taalluqlidir. Aqli zaif bola tomonidan tashqi dunyodan olingan ma'lumotni idrok etish sekin va parcha-parcha bo'lib, buning natijasida u atrofdagi dunyo haqida to'liq tasavvurga ega emas. Aqliy zaiflik belgilari, shuningdek, eshitishdan ko'ra ko'rish qobiliyatining yaxshi rivojlanishini o'z ichiga oladi.

Bunday bolalarning e'tibori beqaror, ular doimo begona narsalar va odamlar tomonidan chalg'itiladi. Qiyinchilik ma'lum bir faoliyat turiga e'tibor qaratish, sodir bo'layotgan voqealarning mantiqiy zanjirini tiklash zaruratini keltirib chiqaradi. Aqli zaif bolalarning ko'p qismini oligofrenlar tashkil qiladilar (grekcha oligof - kam, phrenos - aql). M.S. Pevzner oligofreniyaning 5 ta asosiy turini ajratadi:

- Oligofreniyaning murakkab bo'lmagan turi.
- Neyrodinamikasi buzilgan oligofrenlar.
- Ma'lum analizatorlari buzilgan oligofrenlar.
- Shaxsi qo'pol buzilgan oligofrenlar.
- Telbanamo xulqli oligofrenlar.
- Bu beshta turdan birinchi ikkinchis juda keng tarqalgan.

Aqli zaif bolalarning dunyoga kelish sabablari turlicha. Odatda, endogen (ichki) va ekzogen (tashqi muhit) omillarini ajratish mumkin. Aniqlanishicha, aqli zaiflikning genetik shakllari ustun tursa, ular tug'ma aqli zaiflar soniga kiradi. Biroq buzilishlarning yuzaga kelishida onaning yuqumli kasalliklari (masalan: qizilcha, homilaning alkogol bilan zaharlanishi, narkotiklar, dorilami haddan ziyod iste'mol qilish, onaning endokrin kasalliklari, xromosoma buzilishlari) muhim rol o'ynaydi. Ona qornida rivojlanish davrida,

tug'ruq paytida va bir-bir yarim yoshida olingan miya shikastlanishlari malum ahamiyatga ega, shu bilan bir qatorda hozirgi iqtisodiy va ekologik vaziyat ham katta rol o'ynaydi.

Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasi sog'lom rivojlanayotgan bolalar psixologiyasidan farq qiladi. Aqli zaif bolalarning diqqati tarqoq va idrok qilish qobiliyati juda sust bo'ladi. Idrok - bu inson analizatorlariga ta'sir etuvchi, narsa va hodisalarning butunligicha yoki ularning turli xususiyatlari o'zaro aloqasining shakllanish jarayonidir. Aqli zaiflikni butunlay bartaraf etib bo'lmaydi. Bunday nuqsonga ega bo'lgan bolalarni erta aniqlash va ular bilan korreksion hamda pedagogik mashg'ulotlarni olib borish natijasida ulardagi ikkilamchi hamda mujassamlashgan nuqsonlarning oldi olinadi. Ularni ijtimoiy hayotga moslashtirib o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalari shakllantirib boriladi.

Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar tasnifi, ularning turli xususiyatlari va ehtiyojlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ushbu tasnif orqali bolalar intellektual rivojlanish, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlari va kommunikatsiya ko'nikmalari bo'yicha guruhlarga ajratiladi. Har bir guruh o'ziga xos muammolar va qiyinchiliklar bilan shug'ullanishni talab qiladi, shuning uchun pedagogik yondashuvlar va ta'lim metodlarini moslashtirish zarur. Aqliy rivojlanish nuqsonlari bilan bog'liq holatlarni tushunish nafaqat ta'lim beruvchilar, balki oilalar va jamiyat uchun ham muhimdir. Bu bolalarning individual ehtiyojlarini inobatga olib, ularning rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi.

Natijada, aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mos ta'lim va tarbiya tizimini yaratish, ularning ijtimoiy moslashuvchanligini oshirish va farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu jarayon, bolalarning to'liq rivojlanishi va hayot sifatini yaxshilashga imkon yaratadi.

Hammaga ma'lumki aqli zaif bolalar tafakkurining rivojlanmay qolishiga asosiy sabab bosh miya po'stloq qismi faoliyatining buzilishidir. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan

bolalar turli xildagi intellektual yoki rivojlanish cheklovlariga ega bo'lib, bu ularning bilim olish, ijtimoiy muhitda o'zini tutish va kundalik hayot faoliyatida ma'lum qiyinchiliklarga olib keladi. Bu bolalar har xil sabablarga ko'ra intellektual rivojlanishda ortda qolishlari mumkin. Ularni tasniflashda ko'pincha quyidagi mezonlar asosida ajratiladi. Pedagoglar aqli zaif bola umri davomida nazariy bilimlarni egallab boradi, lekin bolaning aqliy koeffitsenti o'zgarmaydi. Bola ruhiyati og'ir nuqsonda ham rivojlanib boradi degan fikmi ilgari surishadi. Bu to'g'risida J.I.Snif shunday degan "Aqli zaif bola ruhiyati, normal bola ruhiyati kabi rivojlanish davrlarini boshidan kechiradi".

Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni hayotdan, jamiyatdan ajralib qolishlariga beparvo qarab bo'lmaydi. Buning uchun pedagoglar, psixologlar va ota-onalar birga hamkorlikda ish olib borishlari lozim. Bu nuqsonlarni qancha erta aniqlansa, ularga to'g'ri yondashilsa, Ularni bartaraf etish shuncha samarali bo'ladi. Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimida ham bu masalaga alohida e'tibor qartilgan. Ta'lim to'g'risidagi qonunning 20-moddasi inklyuziv ta'limga bag'ishlangan bo'lib, ularning o'z tengqurlari bilan birga tehsil olishlari, chetda qolib ketmasliklari inobatga olingan. Bunday nuqsonli bolalar har doim e'tiborga, mehrga muhtoj bo'lishadi. Ularni doimo qo'llab-quvvatlash hamda inklyuziv ta'limni amalga oshirish orqali ularni jamiyatda ijtimoiylashuviga yordamlashish maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Akramova, H. (2018). Didactic Foundations of Labor Activity for Children with Intellectual Disabilities. Eastem European Scientific Journal, (6).

2. Akramova, X. (2020). Методика формирования общих трудовых навыков у умственно отсталых учеников через компьютерные мультимедийные программы. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-7.

3. Abdunazarov, A. (2020). Imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy moslashuvini o'rganishning innovatsion usullari.

4. Nazarova D.A. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limini takomil lashtirish. // Bolani maktabga tayyorlash sifat va samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy yechimlari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2017. – B.

5. P.Po'latova, Z.Mamarajabova L.Nurmuxamedova. Maxsus pedagogika. Darslik "Fan va texnologiyalar" nashriyoti. T.: 2015